



O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Gulyamov A'lo Xusniddin o'g'li

Bank faoliyatini ilmiy-texnik taraqqiyotning so'nggi yutuqlarini jadal tatbiq etmasdan modernizatsiya qilish mumkin emas. Jahon amaliyotidan ko'rinish turibdiki, ilmiy-texnik taraqqiyot va yangi axborot texnologiya (IT)larining jadal o'sishi bankning jozibadorligini umumiy baholashga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Texnologik jarayonning rivojlanishi nafaqat xujjatlarni rasmiylashtirish va kassa operatsiyalarini o'tkazish tezligini oshirishga, balki mijozlar doirasini kengaytirishga ham imkon beradi.

O'z navbatida, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi banklar va bank xizmatidan foydalanuvchilar o'ptasidagi masofani sezilarli darajada kamaytirishi, banklarapo paqobatni kuchaytirishi va shu sababli bank xizmatlarining miqdopiy va sifat jihatidan rivojlanishiga hissa qo'shib kelmoqda.

Nazariy jihatdan, bank texnologiyasi, yakka tartibdagi intizom emas, balki moliya pisklarni boshqapish, axborot-kommunikasiya texnologiyalari, kompyutep va mapketing bilimlari kabi bip-bipidan farq qiladigan bip nechta yo'nalishlarning biplashishi natijasida tashkil etiladi hamda uning tapkibiy elementlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Axborot texnologiyalari;
2. Aloqa-kommunikatsiya texnologiyalari;
3. Kompyuter bilimlari;
4. Moliya va risk menejmenti;
5. Marketing bilimlari.

R.Vadlamani tadqiqotlarida funksional nuqtai nazardan, bank texnologiyasi quyidagi uchta muhim o'lchovga ega ekanligini ilgari surgan:

1. Turli xil etkazib berish kanallari va to'lov tizimlari orqali faoliyat yuritish va mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun tegishli texnik vositalardan foydalanish hamda shu bilan bog'liq dasturiy ta'minot bank texnologiyalarining bir o'lchovidir.

2. Mijozlarni sinflash (turkumlash) va bank xizmatlari bozorini tahlil qilish hamda muammolarni hal qilish uchun zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalaniladi. Ushbu o'lchov banklar uchun ma'lumotlar omborini boshqarish va undan samarali foydalanish imkonini beradi.


3. Barcha turdag'i xatarlarni miqdorini aniqlash, o'lchash, yumshatish va boshqarish bank texnologiyalarining uchinchi muhim o'lchovini tashkil etadi. Ushbu o'lchov kredit xatarini, bozor havfini va operatsion havfni o'lchash va boshqarish jarayonini qamrab oladi.

Fikrimizcha, bank texnologiyalari deganda bank faoliyatini amalga oshirish va qo'llab-quvvatlashning eng yangi yondashuvlari, usullari, vositalari yig'indisi



tushuniladi.

Tadqiqotlardan kelib chiqib, bank texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini va uning takomillashishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni quyidagicha ifodalash mumkin



1.3.1-rasm. Bank texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari va uning takomillashishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Bugungi murakkab va tez o'zgaruvchan sharoitda muvaffaqiyat qozonish uchun "IT managers" guruhini shakllantirish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarni hisobga olish lozim:

yangi raqobat sharoitlariga tayyor bo'lish uchun "IT operation" modellarni yangilash;

- faoliyat tizimini soddalashtirish va robotlashtirish orqali xarajatlarni qisqartirish;

- mijozlarning ehtiyojlari o'rganish va tahlil qilish orqali takliflarni optimallashtirish uchun texnologik imkoniyatlarni yaratish hamda foydalanish;

- veb-sayt va mobil ilovalarning internet va turli serverlar bilan har qanday holatda va hamma joyda uzluksiz ulanishiga tayyor qilish;

- kiber-xavfsizlikka jiddiy e'tibor berish, ammo bu foydalanuvchilarning ortiqcha vaqtini olmasligi va noqulayliklarni keltirib chiqarmasligi shart;

- xodimlar qobiliyati va ko'nikmalarini doimiy yuksaltirishga katta e'tibor qaratish hamda bunga erishishning ish faoliyatga salbiy ta'sir etmaydigan modellaridan foydalanish.

Bank internet orqali taqdim etishi mumkin bo'lgan xizmatlarning to'liq ro'yxati juda keng, bo'lib quyidagilar kiradi:



- hisobvapaqlarni boshqapish va hisobvapaqlar opasidagi mablag'lar hapakati, shu jumladan bank plastik kaptalari uchun hisobvapaqlar;
- tupli xil bank hisobvapaqlarini ochish;
- konvepsion opepasiyalar;
- to'lovlar, shu jumladan tovap va xizmatlar, shu jumladan kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish;
- hisobvapaqlarni to'ldipish, hisobvapaqlardan pul olish;• pul o'tkazmalari, shu jumladan chet yel valyutasida;
- bank tomonidan boshqariladigan investitsiya portfeli bilan operatsiyalar;
- kredit operatsiyalari (overdraft krediti);
- hisobvaraqlarning holati to'g'risida ma'lumot olish;
- maslahat va axborot xizmatlarini olish.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Брингҳам Э.Ф., Эхрҳардт М.С. Финансиал манагемент тҳеорий анд прастисе. Тҳомсон Соутҳ-Уестерн, 2008. 1107 п.
2. Ҳиллиер Д., Гринблатт М., Титман Ш. Финансиал Маркетс анд Сорпорате Стратегий. Лондон: McGraw-Ҳилл Ҳигҳер Эдусатион, 2012. 877 п.
3. Корсо Э. Инслусиве гроутҳ аналийсис анд ҲРВ: А метҳодологисал ноте. 2011. Электрон манба: [хттп://citerecources.worldbank.org](http://citerecources.worldbank.org)
4. Ландесманн, Мичаел Алрой (2000): Структурал Чанге ин тҳе Транситион Эсономиес, 1989 то 1999. Тҳе Виенна Институте фор Интернатионал Эсономис Студиес.
5. Модigliани Ф., Миллер М. Сост оғ Сапитал, Сорпорате Финанс, анд тҳе Тҳеорий оғ Инвестмент // Америсан Эсономис Ревиев, в. 48. (1958).
6. Модigliани Ф., Миллер М. (1963) "Сорпорате Инсоме Taxес анд тҳе Сост оғ Сапитал: А Соррестион" Америсан Эсономис Ревиев, Вол. 53, Но. 3, пл. 147 – 175.
7. Петер Брусов, Татиана Филатова, Натали Ореҳова, Настиа Брусова. Weigҳted авераге сост оғ сапитал ин тҳе тҳеорий оғ Модigliани-Миллер, модифиед фор а фините лифетиме сомпаний // Апплиед Финансиал Эсономисс, в. 21, № 4.